



**SIRDARYO VILOYATI KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA  
BANDLIK BOSH BOSHQARMASI  
BUYRUG‘I**

13 may 2024 yil.

174-ICH-son

**Sirdaryo viloyati Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasida  
markazlashgan davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonini tartibga solish  
to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 2022-yil 20-maydagi 276-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 12-yanvarda PQ-81-son qarori talablariga muvofiq,

**BUYURAMAN:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yil 18-avgust kuni 149-son buyrug‘i ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Sirdaryo viloyati Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasida Davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonida korrupsion holatlar yuzaga kelishi va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish, tashkil etiladigan davlat xaridlarini o‘tkazish jarayonlarini ochiqlik va shaffoflik prinsiplariga muvofiq amalga oshirilishini ta‘minlash maqsadida:

Sirdaryo viloyati Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasida amalga oshiriladigan davlat xaridlari bo‘yicha xarid komissiyasi tarkibi 1-ilovaga;

Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg‘armasi hisobidan amalga oshiriladigan davlat xaridlari bo‘yicha xarid komissiyasi tarkibi 2-ilovaga;

Tuman (shahar) Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limlarida amalga oshiriladigan davlat xaridlari bo‘yicha xarid komissiyasi namunaviy tarkibi 3-ilovaga;

“Ishga marhamat” monomarkazlarida amalga oshiriladigan davlat xaridlari bo‘yicha xarid komissiyasi namunaviy tarkibi 4-ilovaga;

Tuman (shahar) kasb-hunarga o‘qitish markazlarida amalga oshiriladigan davlat xaridlari bo‘yicha xarid komissiyasi namunaviy tarkibi 5-ilovaga;

Sirdaryo viloyati Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi, tuman (shahar) kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limlari va tasarrufiy

tashkilotlarda davlat xaridlarini amalga oshirish doirasida xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarini tekshirish jarayoni bo'yicha yoriqnoma 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

**3.** Xarid komissiyasining asosiy vazifasi Sirdaryo viloyati Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi, tuman (shahar) bo'limlari, tasarrufiy tashkilotlar mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan markazlashgan xaridlarni ko'rib chiqish, xolis baholash hamda davlat xaridlari raqobatlashuv usullari orqali g'olibni tanlashdan iborat.

**4.** Uch kun muddatda davlat xaridlarini amalga oshirish bo'yicha xarid komissiyasi a'zolari o'zining shaxsiy "Elektron imzo" kaliti bilan xarid.uzex.uz dasturi orqali ro'yxatdan o'tsin.

**5.** Komplayens nazorat bosh mutaxassis (U.Xaydarov) xarid ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan takliflarini baholash jarayonida xarid tartib-taomillariga asosan manfaatlar to'qnashuvini va ishtirokchilari haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, hujjatlar taqdim etilgandan so'ng uch ish kunida xulosani Xarid komissiyasi Ishchi guruhiga taqdim etsin.

**6.** Mazkur buyruqni ijrosini nazorat qilish bosh boshqarma boshlig'ining birinchi o'rinbosari N.Mamatqulov zimmasiga yuklansin.

**Bosh boshqarma boshlig'i**



**Sh.Yakubov**